

TURLI TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA MASHINA VA JIHOZLAR VAQTINI TADQIQ ETISH

Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna

Namangan to'qimachilik sanoati institut professori

E-mail: nabidjanovanargiza@gmail.com

Mamatqulova Saida Raxmatovna

Farg'onा politexnika instituti o'qituvchisi

+998913295891 saida.mamatqulova.1989@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 24-dekabr 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-dekabr 2024-yil

Jurnal soni: 13

Maqola raqami: 39

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1049>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Jixoz, tikuv, loyiha turlari, materialni o'rGANISH, vertikal va gorizontal chiziqlar, rivojlanish davri, kostyum, o'lcham, mexanizatsiyalash, jarayon, mashina, uskuna, me'yor, asiy vaqt, yordamchi vaqt, kutish vaqt, tashkiliy vaqt, nosozlik vaqt, tikuv-trikotaj mahsulotlari.

Ish jarayonlari - bevosita mehnat obyektlarining shakli yoki holatini o'zgartirishga qaratilgan operatsiyalar elementlari (qismlarni yoki ularning elementlarini birlashtirish, ulami burish, kesish va boshqalar). Ish jarayonlarini mexanizatsiyalash uchun texnologik jihozlardan foydaliladi. Hozirgi vaqtida kiyim-kechak ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha.

Kirish. Mehnatni me'yorashtirishda jarayonlarni ikki turga ajratish mumkin. Birinchi qismi qo'l mehnati va ishchining xususiy xarakatlari bilan bog'liq jarayon bo'lsa, ikkinchi qismi ishchi ta'sirida yoki uning ta'sirisiz mashina va jihozlarni ishlab chiqarish jarayonidagi xarakati hisoblanadi. Lekin, masalaning shu tomoniga alohida e'tibor qaratish zarurki, mehnat, mashina-uskunalarining o'zaro xarakati va ularning alohida xarakatlari bir butunligicha me'yorashtirishning ob'ekti sanaladi. Mashina va uskunalarining o'zinigina vaqtini me'yorashtirish ishlab chiqarish me'yorlari bilan bog'liq tadqiqotlaming darajasini yanada torayishiga olib keladi. Bugungi kunda, sanoat konsepsyaisining qo'llanilishi, ishlab chiqarishga yugor texnika va texnologiyalarning joriy qilinishi mehnatning ulushini kamaytirib borayotganligi sababi, mashina va uskunlarning alohida mehnat me'yorlari bilan shug'ullanish dolzlar masalalardan biriga aylanib bormoqda. Lekin, o'tkazilgan tadqiqotlar, o'rganilgan abadiyotlarning barchasida mehnat me'yorlari borasida fikr yuritilganida, umumiy ish vaqtini me'yorashtirish asoslariga to'xtalib o'tiladi. Bunda nafaqat ishlab chiqarishdagi mehnat yoki mashina va uskunalarining xarakati, balki, barcha xarakatlarning jamlanmasini me'yorashtirishga alohida e'tibor berilgan. Buni ish vaqtining umumiy formulasi orqali ham ko'rish mumkin.

Abadiyotlar tahlili. Ushbu maqolada zamonaviy kiyim-kechak ishlab chiqarish, dizayn va materialshunoslik sohasidagi ilmiy ishlanmalar tahlil qilindi. Nizamova va Mamatzulova (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda zamonaviy ayollar paltolarining assortimentiga baho berilib, dizayn va texnologik jihatlar tahlil qilingan. Ushbu ish moda sanoatining rivojlanish tendensiylarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadzikuziev va boshqalar (2024) energiya tejamkor payvandlash texnologiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda innovatsion usullar va modellami taqdirm etib, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yondashuvlarni tahlil qilgan. Ushbu tadqiqot zamonaviy sanoat ishlab chiqarishining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamatzulova va boshqalar (2024) tomonidan tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan materiallarning o'rganilishi, ularning sifat va texnologik xususiyatlari bo'yicha muhim ilmiy natijalar berilgan. Shuningdek, Mamatzulova va boshqalar (2024) libos dizaynining ahamiyatini o'rganib, estetik va funksional jihatlarga e'tibor qaratgan. Ushbu tadqiqotlar kiyim-kechak sanoatining texnologik va dizayn yo'nalishlarida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini o'chib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda kiyim-kechak ishlab chiqarish va dizayn sohasidagi ilmiy ishlanmalarini tahlil qilish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullari qo'llanildi. Dastlabki bosqichda

mavvuga oid ilmiy maqolalar va tadqiqot materiallari tahlil qilindi. Kontent-tahlil usuli orqali mualiflar tomonidan taqdim etilgan asosiy g'oyalilar va yondashuvlar ajratib olindi. Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida turli tadqiqot natijalarini o'tasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanib, ularning zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siri baholandi. Ekspert baholash usuli orqali kiyim materiallari, dizayn elementlari va energiya tejamkor ishlab chiqarish texnologiyalarining samaradorligi tahlil qilindi. Natijalarning ishonchhliligini ta'minlash maqsadida sohaning yetakchi mutaxassislarining ishlari tahlil qilinib, ularning ilmiy asoslangan xulosalariga tayangan holda umumiyl fikrlar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari. Ish vaqtining umumiy formulasi ishlab chiqarish jarayonidagi har bir tarkibiy qismni o'z ichiga oladi. Ish vaqt turli tarkibiy qismlardan tashkil topgani sababli, uning umumiy formulasi ushbu qismarni qo'shish orqali ifodalanadi. Quyidagi formula ishlab chiqarish jarayonida barcha komponentlar hisobga olingan holda ish vaqtini ifodalaydi:

$$T_{um} = T_{as} + T_{yor} + T_{tex} + T_{ku} + T_{tash} + T_{shax} + T_{no}, \quad (1)$$

Bu yerda:

— **T_{umumi} — ish vaqtining umumiy davomiyligi.**

— **T_{asosiy} — asosiy ish vaqt** (mahsulotni ishlab chiqarish uchun asosiy operatsiyalarini bajarishga sarflanadigan vaqt).

— **T_{yordamchi} — yordamchi ish vaqt** (asosiy operatsiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan yordamchi harakatlarga sarflanadigan vaqt).

— **T_{texnologik} — texnologik vaqt** (mahsulot tayyorlashda texnologik jarayonlarga mos keladigan vaqt).

— **T_{kutish} — kutish vaqt** (material yoki uskunalarini kutish).

— **T_{tashkiliy} — tashkiliy vaqt** (ish joyini tayyorlash va texnik xavfsizlik talablariga rioya qilish vaqt).

— **T_{shaxsiy} — shaxsiy ehtiyojlarga sarflanadigan vaqt** (shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan vaqt).

— **T_{nosozlik} — nosozlik vaqt** (mashina yoki uskuna nosozligi tufayli ishni davom ettira olmaydigan vaqt).

Ish vaqtining umumiy formulasi ishlab chiqarish jarayonida barcha turdag'i vaqt sarflarini o'z ichiga oladi. Bu formula orqali har bir operatsiyaning umumiy davomiyligi hisoblanadi va ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini baholash hamda uni optimallashtirish mumkin. Har bir komponentning aniq o'chovlarini aniqlash va

boshqarish orqali ish vaqtining samaradorligini oshirish va ortiqcha sarflarni kamaytirish maqsad qilinadi [2].

Tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarida mashinalarning ish vaqtini umumiyligi ish vaqtidan ajratib olingen holda ham alohida o'rganish mumkin. Tikuv-trikotaj mashinalarining ish vaqt — bu tikuv-trikotaj mashinalarida mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida mashina tomonidan bevosita mahsulotga ishlov berish uchun sarflanadigan umumiyligi vaqtini anglatadi. Tikuv-trikotaj mashinalarining ish vaqtini mashina faoliyatini rejalashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu vaqtini to'g'ri boshqarish mashinalardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini ta'minlash imkonini beradi. Tikuv-trikotaj mashinalarining ham ish vaqtini umumiyligi ish vaqtini bo'linish mantig'i bo'yicha asosiy ish vaqt, yordamchi ish vaqt, kutish yoki to'xtab turish vaqt, texnologik vaqt, nosozlik vaqt hamda shaxsiy ehtiyojlariga sarflanadigan vaqtarga bo'linadi [3].

Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, mashinaning ish vaqtini mashinaning umumiyligi samaradorligiga bog'liq. Samaradorlik mashinaning ishlash sur'ati, jarayon davomiyligi va mahsulot hajmi bilan aniqlanadi. Samaradorlikni oshirish uchun mashinadan maksimal foya olish uchun ish vaqtini to'g'ri boshqarilishi kerak. Masalan, mashinaning texnik imkoniyatlari eng yuqori tezlikda ishlash yoki mashinaning uzluksi ishlashini ta'minlash uchun nosozlik va kutish vaqtinlarini minimal darajaga tushirishlami bunga misol sifatida ko'rsatish mumkin [4].

Shu kungacha mehnat meyo'rlarini ishlab chiqishning ko'plab klassik va zamonaviy usullaridan foydalanib kelinadi. Barcha me'yorashtirish usullarining asosida esa xronometraj va fotografiya usullari yotadi. Qolgan usullar qanchalik zamonaviy yoki axborot texnologiyalariga asoslanmasin yuqoridaqgi klassik uslublarga suyanishga majbur bo'ladi. Shuningdek, vaqt me'yorlarini ishlab chiqishda asosan, hisoblash va tahvilay usullar qo'llaniladi. Vaqtini me'yorashtirishda hisob-kitob va tahvilay ishlarni bajarish uchun esa quyidagi metodologiya taqdim etiladi:

- 1) rejalashtirilan ish uning tarkibiy elementlari bo'yicha tahlil qilinadi;
- 2) mehnat va texnologik jarayonlarning oqilona tarkibi va mazmuni ishlab chiqiladi;
- 3) talab qilinadigan mehnat vositalari va texnologik jihozlar asoslanadi;
- 4) uskunanan optimal ishlash rejimlari va mehnatni tashkil etish shakllari tanlanadi;
- 5) operatsiya uchun asosiy, yordamchi va qism vaqtining xarajatlari hisoblanadi;

6) korxonada loyihalashtirilan shart-sharoit va me'yormani joriy etish bo'yicha tashkiliy-rejalashtirilan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Bir xil ishlab chiqarish sharoitida bir xil texnologik operatsiya turli yo'llar bilan mehnat taqsimoti va ish joylariga texnik xizmat ko'rsatishning turli shakllarida amalga oshirilishi mumkin. Mehnat me'yorlarining iqtisodiy asoslanishi amaldagi ishlab chiqarishda texnologiya va mehnat jarayonini tashkil etish uchun eng yaxshi variantni tanlash va mehnat va moddiy resurslarni iloji boricha tejashta imkon beradi [5].

Mehnat xarajatlari me'yorni ilmiy asoslashning mohiyati uning maqbul qiymatini va texnologik jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini va boshqa ishlab chiqarish cheklolvarini tanlashdir. Vaqt me'yorni hisoblashni boshlashdan oldin, ish joyidagi mehnatni tashkil etish mashinaning tezligi, zarur qurilmalar va asboblarning mavjudligi, qo'llaniladigan texnikalar, asosiy va yordamchi ishlari va boshqalar bo'yicha standartlarda nazarda tutilgan ish joyiga mos kelishiga ishonch hosil qilishingiz kerak.

Yuqorida keltirilgan metodologiya asosida aytib o'tilganidek xronometraj va fotografiya, fotoxronometraj kabi usullar asoslanadi. Xronometraj — ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish va har bir operatsiyaga sarflanadigan vaqtini aniqlash usuli bo'lib, uning yordamida operatsiyalarga standart vaqt belgilash mumkin. Bu usul XIX asrning oxirlarida ilk bor ishlab chiqilgan bo'lib, u vaqtini samarali boshqarishga va ish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan. Xronometraj usuli zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega, chunki uning yordamida ishchilarining samaradorligini oshirish, uskulnalaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi.

Ish vaqtini aniqlash, standart vaqtini belgilash, ish jarayonini optimallashtirish, samaradorlikni baholash hamda mehnatga haq

to'lash tizimini takomillashtirish masalalari xronometrajning asosiy maqsadlari bo'lib hisoblanadi. Xronometrajni amalga oshirish jarayoni aniq va samarali hisob-kitob qilish uchun muayyan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Xronometrajni amalga oshirishning asosiy bosqichlari bo'lib, operatsiyani aniqlash, tahlil qilish, kuzatish uchun shart-sharoitlarni tayyorlash, xronometrni tayyorlash, operatsiyani kuzatish, operatsiyani boshlash vaqtida xronometri ishga tushish, operatsiya tugagan paytda xronometrni to'xtatish, natijalarni yozib olish, takroriy kuzatish, natijalarni qayd qilish, o'rtaча vaqtini aniqlash, tuzatuvchi koeffitsientlarni hisobga olish, standart vaqtini belgilash hamda natijalarni aniqlash va joriy qilishlar hisoblanadi.

Xronometraj samarali bo'lishi uchun operatsiyaning murakkabligi, ishchining tajribasi, jismoniy sharoitlar va qo'shimcha vaqtlar kabi bir qator omillarni inobatga olish kerak. Xronometraj o'tkazilayotgan vaqtda ishchilar kuzatilayotganligi uchun o'zlarini noqulay his qilishi mumkin, bu ularning ish samaradorligiga ta'sir qilishini inobatga olish muhim sanaladi. Shuningdek, xronometraj bir necha marotaba o'Ichovlarni talab qiladi, bu esa vaqtini talab qiladigan jarayondir. Bunday kamchiliklarga qaramasdan, xronometraj me'yorashtirishning eng zarur metodologiyasi sifatida qoladi.

Xronometraj usuli bilan amalga oshiriladigan asosiy hisob-kitoblar quyidagicha aniqlanadi: operatsiyaga sarflangan vaqtini o'lchash, o'rtaча vaqtini aniqlash, tuzatuvchi koeffitsientlarni hisobga olish, me'yoriy vaqtini aniqlash, ish unumdorligini baholash, ish jadvali va rejalarini tuzish, vaqt samaradorligini baholash, to'xtov va ortiqcha vaqt sarflarini aniqlash.

Xronometrajda operatsiyaga sarflangan vaqtini o'lchash jarayon quyidagi qadamlarni o'z ichiga oladi: har bir operatsiya yoki harakatning boshlanishi va tuga什 vaqt o'chanadi; har bir operatsiya uchun to'liq vaqt sarfi qayd etiladi.

O'rtaча vaqtini aniqlashda har bir operatsiya bir necha marta o'chanishi mumkin, chunki bir martalik o'ichov natijalari to'g'ri bo'lmassligi mumkin, shuning uchun bir necha o'ichov natijalari bo'yicha o'rtaча vaqt aniqlanadi: har bir operatsiya uchun bir necha bor o'ichov olib, ularning o'rtaчasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$O'rtaча vaqt = \frac{\Sigma(O'ichovna tijala ri)}{n}, \quad (2)$$

Bu yerda:

$\Sigma(O'ichov natijalari)$ — barcha o'ichov natijalari summasi;
 n — o'ichovlar soni.

Xronometraj natijalariga asoslanib har bir operatsiya uchun me'yoriy vaqt aniqlanadi. Bu vaqt aniq va barqaror ishlash sharoitida bir operatsiyani bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt hisoblanadi:

$$Me'yoriy vaqt = to'g'rilangan vaqt + dam olish vaqt \quad (3)$$

Olingan xronometraj natijalari asosida ishchining ish unumdorligi va samaradorligi baholanadi:

$$Ish unumdorligi = \frac{Meyoriy vaqt}{Amalagi vaqt} \times 100$$

(4)

Agar ish unumdorligi 100% yoki undan yuqori bo'lsa, ishchi me'yorni bajargan yoki oshirgan deb hisoblanadi. Agar undan past bo'lsa, ish jarayonini yoki ishchi quvvatini qayta ko'rib chiqish zarur.

Xronometraj natijalari asosida ish jadvallari va ish rejalarini tuziladi va ular quyidagi ketma-ketlikni tashkil etadi: har bir operatsiya uchun me'yoriy vaqt aniqlanganidan so'ng, ish jadvalida har bir operatsiya uchun qancha vaqt ajratilishi aniqlanadi; mahsulot ishlab chiqarish yoki ish jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun vaqt taqsimoti rejalashtiriladi.

Vaqt samaradorligini baholashda xronometraj natijalari asosida ish jarayonidagi vaqtincha to'xtovlar, ortiqcha harakatlar yoki samarasiz operatsiyalar aniqlanadi va har bir operatsiyaning bajarilishiga sarflangan vaqt, ish joyidagi umumiyligi to'xtovlar aniqlanadi va to'xtovlarni kamaytirish yoki ish jarayonini samarali tashkil qilish uchun zarur o'zgartirishlar kiritiladi.

To'xtov va ortiqcha vaqt sarfini aniqlashda xronometraj jarayonida aniqlangan to'xtovlar yoki ortiqcha sarflangan vaqt tahlil qilinadi va to'xtovlarning umumiyligi ish vaqtiga nisbatli aniqlanadi va ularni kamaytirish uchun choralar ko'rildi, bundan kelib chiqib ortiqcha sarflangan vaqtini kamaytirish va ish jarayonini samarali tashkil qilish uchun zarur o'zgartirishlar kiritiladi.

$$To'xtov foizi = \frac{To'xtov vaqt}{Umumiyligi ish vaqt} \times 100$$

(5)

Xronometrajdan tashqari fotografiya usuli ham mavjud bo'lib, yuqoridaqgi talablar asosida tadbiq etiladi. Uni xronometrajdan farqi mashina va tukuv uskulalarining muayyan vaqt davomidagi harakatlari

yoki ish jarayonlari fotosuratlar orqali qayd etiladi. Olingen fotosuratlar yoki tasvirlar orqali har bir operatsiyaga sarflanadigan vaqt aniqlanadi va ish jarayonidagi ortiqcha harakatlar yoki samarasizliklar aniqlanadi.

Fotografiya usuli orqali ishchi yoki uskuna harakatlari davomidagi barcha faoliyat fotosuratlar yoki video tasvirlar orqali qayd etiladi. Bu jarayonda barcha operatsiyalar yoki jarayonlar qayd etilgan vaqt bilan birga tasvirlanadi. Olingen fotosuratlar va tasvirlar orqali har bir harakat yoki operatsiya tahlil qilinadi. Bu tahlil orqali ish vaqtini optimallashtirish yo'llari qidiriladi. Ushbu usul operatsiyalar ketma-ketligini tahlil qilish orqali ish vaqtini aniq rejalashtirish imkonini beradi. Bu ish jarayonida qancha vaqt kerakligini va har bir harakatning samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

Fotografiya usuli orqali har bir ish jarayonidagi operatsiyalar uchun sarflangan umumiyyatni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$T_{umumiyyat} = T_{asosiy} + T_{yordamchi} + T_{to'xtovlar}$$

(6)

Bu yerda

$T_{umumiyyat}$ — ish jarayonida sarflangan umumiyyat vaqt;

T_{asosiy} — asosiy ish vaqt (bevasita ish jarayoniga sarflangan vaqt);

$T_{yordamchi}$ — yordamchi ish vaqt (tayyorgarlik va yordamchi harakatlarga sarflangan vaqt);

$T_{to'xtovlar}$ — to'xtovlar vaqt (texnik yoki boshqa sabablar bilan to'xtov vaqt).

Fotoxronometraj usuli ish vaqtini va operatsiyalarni tahlil qilishda samarali vosita bo'lub, u har bir ish jarayoniga sarflangan vaqtini aniqlash va ish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu usulda ish jarayoni fotosuratlar yordamida qayd etiladi, vaqt xronometraj vositalari bilan o'chanadi va keyinchalik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Fotoxronometrajdagi hisob-kitob va bosqichlardagi foydalaniyligida formulalar ham avvalgi metodologiyalardagi kabi amalga oshiriladi [6].

Ish vaqtini tahlil qilish va mehnatni me'yorlashtirish uchun xronometraj, fotografiya va fotoxronometraj usullaridan tashqari boshqa bir qator usullar ham mavjud. Ushbu usullar har xil ish sharoiti va jarayonlariga mos keladi va ular ish jarayonining samaradorligini oshirishga, vaqtini to'g'ri boshqarishga yordam beradi. Quyida ish vaqtini o'lchanash va tahlil qilishda qo'llaniladigan yana bir necha usullar keltirilgan bular: ish na'munalarini olish usuli, me'yorlashtirilgan vaqtlar

Foydalaniylgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Nizamova, B. B., & Mamatkulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(9), 18-23.

[2]. Tadjikuziev R., Rubidinov S., Mamatkulova S. Advancements in energy-efficient welding production techniques: Innovative models and methods for combined workpiece fabrication //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 538. – С. 05005.

[3]. Saidha Mamatkulova, Shakhlo Tursumatova, Makhmudjon Turdiyev, Manzura Abdurakhimova, Makhmudjon Abdullayev, Rano Berdiyeva Research of materials for clothing in the production of various sewing products //E3S Web of Conferences. - EDP Sciences 538, 04003 (2024)

jadvali usuli, vaqt va harakatlar tahlili, Gantt diagrammasi, ish jarayoni tahlili usuli, elektron xronometrajlar hozirgi zamonaviy ish joylarida samarali qo'llaniladi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot kiyim-kechak ishlab chiqarish va dizayn jarayonlarida innovatsion yondashuvlar va samarali texnologiyalarning ahamiyatini ko'rsatib berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ayollar palto modellarining xilma-xilligi material tanlovi va dizayn usullarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir (Nizamova & Mamatkulova, 2021). Bundan tashqari, energiya tejamkor payvandlash texnologiyalari kiyim-kechak ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin (Tadjikuziev, Rubidinov & Mamatkulova, 2024). Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kiyim ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallarning sifati mahsulotning mustahkamliyi va ekologik xavfsizligiga ta'sir qiladi (Mamatkulova va boshq., 2024). Dizayn elementlarining ahamiyati ham ta'kidlanib, turli xil kiyim modellarini ishlab chiqishda zamonaviy yondashuvlar muhim ekanini aniqlandi (Mamatkulova va boshq., 2024). Shunday qilib, tadqiqot natijalari zamonaviy kiyim-kechak ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalar va dizayn innovatsiyalarini joriy etish muhimligini ko'rsatadi. Kelgusida ushbu sohada ekologik barqaror materiallardan foydalananish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlami kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosha. Mehnatni tashkil etish va me'yorlashda ish vaqtining ahamiyati juda katta. Ish vaqtini mehnat jarayonini samarali tashkil qilish, ishchi kuchini oqilona taqsimlash va resurslarni tejashta asosiy o'rinn tutadi. Ish vaqtini to'g'ri me'yorlash orqali korxona samaradorligini oshirish, ishchilaming ish unumodrligini ko'tarish va mehnatga haq to'lash tizimini adollati shakllantirish mumkin. To'g'ri tashkil etilgan ish vaqtini ishlab chiqarish jarayonining uzlusiz va barqaror bo'lishini ta'minlaydi, bu esa korxonaning umumiyyatini samaradorligiga katta ta'sir qiladi.

O'rtaча vaqtini aniqlash, tuzatuvchi koefisientlarni hisobga olish va me'yoriy vaqtini belgilash orqali ish jarayoni optimallashtiriladi. Shu bilan birga, to'xtovlar va ortiqcha vaqt sarflarini aniqlash orqali ish samaradorligini oshirish mumkin.

[4]. Saidha Mamatkulova, Gulhayo Mirbobayeva1, Mayjudaxon Ulug'boboyeva, Nosirjon Yakubov, Bamo Nizamova, Xilola Tursunova. Importance of design in dresses // E3S Web of Conferences 538, 04001 (2024)

[5]. Saidha Mamatkulova, Rano Berdiyeva, Irodakhan Obidova, Maftuna Khoshimova, Malohat Rakhmonova, Bekzod Mominov. The significance of creating embroidery patterns from art decoration techniques in the field of sewing – knitting//E3S Web of Conferences 538, 04002 (2024).

[6]. Nurulla Ismailov1,Y , Nargiza Nabidjanova2 , Dilrabo Rayimberdiyeva2 , Rashida Ergasheva2 , and Saidha Mamatkulova. Economic efficiency of production of knitted fabrics per unit of time//E3S Web of Conferences 538, 04013 (2024)